



## Pedagogical conditions for improving the methodology of inter-disciplinary formation of scientific worldview in primary class students

Niyokhon TOSHPULATOVA<sup>1</sup>

Termez State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received December 2022

Received in revised form

15 December 2022

Accepted 20 January 2023

Available online

15 February 2023

#### *Keywords:*

scientific worldview,  
scientific knowledge,  
intellectual system,  
simple worldview,  
existence,  
thinking,  
research.

### ABSTRACT

This article covers briefly the fundamental changes in education today. The main requirement is to raise the scientific outlook and intellectual development of the young generation to a qualitatively new level, to teach them to adapt to the rapidly changing world. At the same time, it aims to introduce innovative forms and methods of education into the educational process.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss1/S-pp42-45>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari

#### *Kalit so'zlar:*

ilmiy dunyoqarash,  
ilmiy bilimlar,  
intellektual tizim,  
borliq,  
tafakkur,  
izchillik.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi davr ta'limini tubdan o'zgartirish qisman yoritilgan. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan.

<sup>1</sup> Teacher, Termez State Pedagogical Institute.

# Педагогические условия совершенствования методологии междисциплинарного формирования научного мировоззрения у учащихся начальных классов

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

научное мировоззрение,  
научное знание,  
интеллектуальная  
система,  
бытие,  
мышление,  
последовательность.

В данной статье кратко освещены фундаментальные изменения, происходящие в образовании сегодня. Главное требование – поднять научное мировоззрение и интеллектуальное развитие молодого поколения на качественно новый уровень, научить их адаптироваться к быстро меняющемуся миру. Рассмотрены направления внедрения в образовательный процесс инновационных форм и методов обучения.

Hozirgi kunda o'quvchilarni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, erkin fikrga ega, nutqi ravon, barkamol, komil inson etib tarbiyalash, o'quvchilarga har tomonlama bilim berishda o'qituvchi oldiga katta ma'suliyat yuklatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Farzandlarimizning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi, men bunga ishonaman" deb xalq oldida yoshlarga nisbatan o'z ishonchini bildirib o'tdilar. Mana shunday buyuk mutafakkirlardek insonlarni voyaga yetkazishimiz uchun albatta, poydevorni mustahkamlashimiz kerak. Mustahkam qurilgan poydevor ustida har qanday yuksalishlarga qo'rqmasdan intilishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu yuksak maqsadlarga erishishlarida barcha shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Faqatgina bulardan to'g'ri, oqilona foydalana olsak bo'lgani. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekan, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Yosh avlod ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash

tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi. Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bilimlarga qarab borishini unutmaslik zarur. Masalan, qayta qurish munosabati bilan dunyo o'zgardi, oldingi tushunchalar ham o'zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatdagi hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham o'zgarmas emas. Shu bois, ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar oddiy tomoshabin bo'lib turaverishi kerak emasligini, bu o'zgarishlarning faol ishtirokchilari bo'lishlik, tahlil yo'li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi.

Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'ladi. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak. Kishilarning ongi ularning borligini emas, aksincha moddiy hayot sharoitlarining mavjudligi ularning ongini belgilashi, shundan dalolat beradi. Shu bois, ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilaveradigan oddiy hodisa bo'lmay, kishining nazariy va amaliy bilim darajasiga bog'liqdir. Kelajagi buyuk davlatni barpo qiluvchi mamlakatning butun aholisi faqat tijorat, din, qiroat, oldi-sotdi bilangina shug'ullanavermasdan eng avvalo ishlab chiqarishni, ilm-fanni rivojlantirishi, dunyo tillarini bilishi, umuman ma'rifatga birinchi darajali e'tibor berish tufayligina ko'tarilishi mumkinligini tushunish ham dunyoqarashni shakllantirishga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Davlatimiz rahbari aytganlaridek, "Ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Ilm-ma'rifat va yuksak ma'rifat kerak. Eng yaxshi meros bu yaxshi tarbiya. Ta'limda qilgan xatolarimizni to'g'rilash vaqti keldi". Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi davr pedagogi o'quvchilarni o'ziga moslashtirishi mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Chunki hozirgi birinchi sinf o'quvchisini misol qilib oladigan bo'lsak, ular kamida ikki tilda bimalol sanab bera oladi. Hozirgi elektronika vositalaridan ba'zi pedagoglarga qaraganda anchagina yaxshi foydalana olishadi. Endi bunday yoshlarga majburlab o'qitishning mutlaqo iloji yo'q, biz ularga moslashga holda ta'lim-tarbiya berishimiz darkor. Milliy qadriyatlarimizni bajarishimiz kerak emas, nima uchun bu qadriyatni davom ettirishimiz kerakligini anglatishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi. – Ma'rifat g., 1999-yil, 3-mart.
3. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – Toshkent, O'zbekiston, 1993.
4. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish, – T.: O'qituvchi, 1991.

5. Muxammadiev A. Tabiat muhofazasi va ekologiya. – T.: O'qituvchi, 1986.
6. To'xtaev A., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. – T.: O'qituvchi, 1994.
7. R.D. Norqobilova, S.K. Zoirova, B.M. Tajimirzayeva. "Nigh spiritual generation-third renaissance builders". Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol.12, Issue 05, May 2022.
8. R.D. Norqobilova, S. Xoliyeva, M. Mamatmurodova. "The importance of people's oral creativity in the development of speech by primary school students". European Journal of Humanities and Educational Advancements. <https://www.scholarzest.com> Vol. 3 – No.06, June 2022 2660–5589. 84-86
9. Xoliqova P.A. "Leksik tushunchalar haqida ma'lumot" Science and education. 458-465 betlar.
10. R.D. Norqobilova, P. Nazarova. "Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhan Beruni teaching". Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1908–1911.
11. Abduhalimova Y.N. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darslarda kreativligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida" Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal (1042-b).
12. R.D. Norqobilova, S. Ibrohimova, M. Mamatmurodova. "Pedagogical and Psychological Factors of using the heritage of Asian thinkers in the formation of ecological thinking in primary school science". European Journal of Humanities and Educational Advancements. <https://www.scholarzest.com> Vol.3 No.06, June 2022 2660-5589. 81-83.